



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 2-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning
pedagogik asoslari.**

Jumaqulova Maxmuda

Jalaquduq MMTBga qarashli 20-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada umuma'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida ekologik ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari, usullari hamda vositalari haqida so'z yuritiladi. Mavzuga oid me'yoriy – huquqiy hujjatlar va etakchi pedagog olimlarning ilmiy-nazariy qarashlriga tayanilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, boshlang'ich ta'lim, tabiatga ma'suliyatli munosabat, ekologik ong, tarbiya usullari.

Hozirgi global ekologik muammolar davrida jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa yosh avlodda ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Vazirlar mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" da ham o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini o'qitish, ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема формирования экологической культуры у учащихся начальных классов общеобразовательных школ. Раскрывается сущность понятия экологической культуры, её структурные компоненты, а также значение воспитания подрастающего поколения в духе ответственного отношения к природе. Также рассматриваются эффективные формы, методы и средства экологического образования и воспитания в процессе начального обучения. В статье использованы нормативно-правовые документы по теме и научно-теоретические взгляды ведущих педагогов-учёных.

Ключевые слова: Экологическая культура, экологическое образование начальное образование, ответственное отношение к природе, экологическое сознание, методы воспитания.

Annotation: This article analyzes the issue of forming ecological culture among school students in general education schools. The essence of the concept of ecological culture, its structural components, and the importance of educating the younger generation in the spirit of a responsible attitude towards nature are revealed. Furthermore, effective forms, methods, and means of ecological education process are discussed. The article is based on regulatory and legal documents on the subject and the scientific-theoretical views of leading pedagogical scholars.



Keywords: ecological culture, ecological education, primary education, responsible attitude to nature, ecological consciousness, methods of upbringing.

Boshlang'ich ta'lim davri shaxs kamolotida poyydevor hisoblanadi. Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashicha, aynan shu davrda bolaning tabiatga bo'lgan munosabati, uning qarashlari shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni maqsadli shakllantirish nafaqat keying ta'lim bosqichlari uchun zamin yaratadi, balki butun hayoti davomida tabiatga nisbatan ma'suliyatli munosabatda bo'lishiga asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish ko'p qirrali va izchil pedagogik jarayondir. Bu jarayon quyidagi omillarga bevosita bog'liq:

1. Ta'lim mazmuning integrasiyalashuvi.

Boshlang'ich ta'limda "Tabiiy fan", "O'qish", "Tarbiya" soatlari kabi fanlar mazmuniga ekologik tushunchalarni singdirish (ekologizatsiyalash) muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, o'qish darslarida tabiat haqidagi sh'er va hikoyalarni tahlil qilish, tabiiy fan darslarida esa bevosita kuzatishlar olib boorish orqali bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish va hurmat uyg'otish.

2. Ta'limning amaliy yo'naltirilganligi.

Xalqaro tajriba, xususan, Yaponiya va Germaniya maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida bolalarning tabiat bilan bevosita muloqotiga, eksperimentlar o'tkazishiga va amaliy harakatlarga katta e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ham "amaliy harakat" muhim. Maktab hovlisidagi daraxt va gullarni parvarishlash, qushlarni oziqlantirish, chiqindilarni alohida yig'ish kabi oddiy, lekin ta'sirchan amaliy ishlar bolalarda ekologik ma'suliyatni tarbiyalaydi.

3. O'yin va ijodiy faoliyat. Boshlang'ich sinfdagi bolalar uchun o'yin etakchi faoliyat turi bo'lib qoladi. Ekologik mazmundagi sujetli-ro'lli o'yinlar ("O'rmon shifokorlari", "Suv tomchisining sayohati") viktorinalar, tabiiy materiallardan hunarmandchilik buyumlarini yasash bolalarning ekologik bilimlarini mustahkamlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi. Ekologik madaniyatni shakllantirish faqat dars bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayonga maktabdan tashqari tadbirlar tashkil etish (ekskursiyalar, sayl-sayohatlar, ekologik aksiyalar) va ota onalarni faol jalb qilish kerak. Konsepsiyada ham ekologik ta'lim uzliksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarini, jumladan, maktabdan tashqari ta'limni ham qamrab olishi kerakligi ta'kidlangan.

Ekologik madaniyatni shakllantirishdagi yana bir muhim jihat-bu o'qituvchining o'rni va uning ekologik kompetentligidir. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o'rnatuvchi shaxs sifatida bolalaraga tabiatga bo'lgan shaxsiy munosabati, hatti harakatlari bilan namuna ko'rsata olishi lozim. "Biz tabiatni otabobolarimizdan meros qilib olmadik, balki uni kelajak avloddan qarzga oldik". Qarzni butun holicha va toza holda qaytarish har birimizning insoniy



burchimiz ekanligini uqtirishimiz, o'z salomatligi va atrof muhit tozaligini qadrlaydigan, loqayd bo'lmagan avlodni tarbiyalash asosiy vazifamizdir. Shunday ekan biz tabiatga dushman emas, uning do'sti bo'lgan avlodni tarbiyalashimiz keak. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-strategik ahamiyatga molik vazifadir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

-Davlat siyosati darajasida qabul qilingan me'yoriy –huquqiy hujjatlar va konseptual asoslarning mavjudligi;

-Ta'lim mazmunini ekologik bilimlar bilan boyitish va uning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytirish;

-Yosh xususiyatlariga mos keladigan interfaol usullardan ,o'yinlar va loyihalardan keng foydalanish;

-Oila va maktab, mahalla hamkorligida uzviy va yaxlit tizimni yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shivadlov N. Ekologiya va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish: ilmiy-nazariy qarash va g'oyalar. -ekomaktab.uz. 2019.

2. Allayarov M. J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalash tizimini takomillashtirish.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Vazirlar mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida Ekologik talimni rivojlantirish konsepsiyasi" dagi qarori -Lex.uz.

4. Yapon yo'rgakdan, nemis bog'chadan boshlaydi. -ekogazeta.uz.